

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



INSON XULQ-ATVORI VA IJTIMOIV MUHIT

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘likni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi: 60920100 – Ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim yo‘nalishi: 60920100 – Ijtimoiy ish

Termiz – 2024

Fan/modul kodi IXI1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit	90	90	180	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –ijtimoiy muhitda xulq-atvorning shakllanishi bosqichlari, inson xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan asosiy biologik va psixologik nazariyalar, ijtimoiylashuv tushunchasi, turlari va mexanizmlari, maktab yoshigacha, maktab yoshidagi, o'smirlilik davrida bo'lgan bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari, o'smir yoshdagibolalarning xulq-atvor va emotsional muammolari, zararli moddalarni iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy ish, o'rta yoshdagi shaxslarning xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlari: jismoniy o'zgarishlar, salomatlik holati, o'rta yosh krizisini hamda biologik va psixologik o'zgarishlar haqida nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar yordamida o'zlashtirishdan iborat. .</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarning ushbu fan bo'yicha olgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini amaliy topshiriqlar hamda vazifalarni bajarish orqali amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qila olishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit faniga kirish</p> <p>Rivojlanishning psixologiyasiga kirish. Inson xulq-atvori kontekstida ko'rib chiqiladigan asosiy tushunchalar. Individ, shaxs va individuallik tushunchalari. Ijtimoiy muhitning inson xulq-atvoriga ta'siri.</p> <p>2-mavzu: Inson xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan asosiy biologik va psixologik nazariyalar</p> <p>Bixeviorizm – odamlar va hayvonlarning xatti-harakatlarini o'rganishga tizimli yondashuv. Jon B.Uotsonning metodologik bixeviorizm nazariyasi. Skinningning radikal bixeviorizmi. Artur Staats tomonidan ilgari surilgan psixologik bixeviorizm.</p> <p>3-mavzu: Inson xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan ilmiy nazariyalartahlili</p> <p>M.Vebber, G.Bekker, V.Pareto, T.Parsons, J.Habermas va boshqalarning asarlarida keltirilgan „ ijtimoiy harakat’’ morfemasi. Sotsiolog F.Znanetskinning ijtimoiy harakat nazariyasi. G.Tardening „ olomon psixosotsiologiyasi’’ deb</p>				

nomlangan ilmiy konsepsiyasi.

4-mavzu: Ijtimoiylashuv tushunchasi, turlari va mexanizmlari

Ijtimoiylashuv turlari. Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o' rni. Ijtimoiylashuv agentlari tushunchasi. Tarbiya ijtimoiylashuv omili sifatida. Tarbiyaning tabiat bilan uyg' unligi tamoyili. Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili. Tarbiyaning variativlik tamoyili. Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili. Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyili. Tarbiyaning davomiyligi tamoyili.

5-mavzu: Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari

Adaptatsiya tushunchasi. Ijtimoiy adaptatsiya. Ijtimoiy xodim va ijtimoiy pedagogning ta' lim muassasasida bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasiga qaratilgan faoliyat. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga moslashuvining o' ziga xos xususiyatlari.

6-mavzu: Oila va mahalla ijtimoiylashuvning an' anaviy shakllari sifatida

Oila va uning o' ziga xosliklari. Oila tipologiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasi. Oila va uning funksiyalari. Ijtimoiy xodimning oila bilan oila bilan ish yuritishi. Oila bilan ish yuritishda asosiy rollar. Mahallalarning vujudga kelishi. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga ta' siri. Hozirgi kunda mahallaning jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishdagi roli.

7-mavzu: Xavf ostidagi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning xulq-atvoriga ta' sir etuvchi omillar tahlili

Xavf ostidagi oila tushunchasi. Xavf ostidagi oilalarning o' ziga xos xususiyatlari. Ota-ona qaramog' ida bo' lmagan bolalar. "Yetim" va "ijtimoiy yetim" tushunchalari. Go' daklar uyida tarbiyalash xususiyatlari.

8-mavzu: Maktab yoshidagi bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari.

L.S.Vigotskiyning bolaning aqliy rivojlanishini davriylashtirish uchun yetakchi faoliyat konsepsiyasi. Z.Freydning psixoanalitik nazariyasida shaxsning rivojlanishini biologik omillarning ta' siri va erta oilaviy muloqot tajribasi. Jan Piaje tomonidan ilgari surilgan kognitiv nazariyasiga ko' ra inson aqliy rivojlanishida 4 ta katta davr.

9-mavzu: O' smirlik davri. O' smir yoshdagi bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari.

O' smirlik davrining madaniy va tarixiy tabiati. O' smirlik davridagi rivojlanish muammolari. Jismoniy o' zgarishlar va balog' at yoshining o' ziga xos xususiyatlari. Psixolog D.B.Elkonin tomonidan o' smirlik davrini ikki davrga bo' linishi. O' smirlik davrida aqliy rivojlanish. O' smirlikdagi qo' rquvlar. O' smirlikdagi turli xil rivojlanish konsepsiyalari. Zamonaviy dunyoda o' smir.

10-mavzu: O' smir yoshdagi bolalarning xulq-atvor va emotsional muammolari.

Ijtimoiy ishda „me'yor" va „me'yordan og' ish tushunchalari. Og' ish turlari. Jismoniy og' ish, ruhiy og' ishlar, pedagogic og' ishlar, ijtimoiy og' ishlar, Deviatziya va uning turlari. Deviant tushunchasining fanga kiritilishi. Bir

muncha ahamiyati past bo'lgan delinkvent xulq-atvor ko'rinishlari. Deviant xulq-atvorning maxfiy tipi. O'smirlarni Deviant xulq-atvori sabablari. Delikvent xulq-atvorning turlari. Yoshlar delikventligi. O'smirlarning Deviant xulq-atvorlarga ta'sir qiluvchi omillar. Maktab dezaptatsiyasi tushunchasi.

11-mavzu: Zararli moddalarni iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy ish

Bolalar ichkilikbozligi. Bolalar ichkilikbozligi o'ziga xos liklari. Bolalar ichkilikbozligining sabablari va salbiy oqibatlari. Shaxsning alkogollashuvi. Bolalarda ichkilikka ruju qo'yishni keltirib chiqaruvchi oilviy tavsifdagi sabablar. Oilalar va o'smirlarning antialkagol reabilitatsiyasimetod va shakllari. Giyohvandlik tushunchasi. Giyohvandlik oqibatlari. Giyohvandlikning jinoiy oqibatlari. Giyohvandlik shakllanishining sabablari to'g'risida nazariyalar. Narkotiklar iste'mol qilishning bir nechta sababiy darajalari. Giyohvand bolalar va o'smirlar.

12-mavzu: O'rta yoshdagi shaxslarning xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlari: jismoniy o'zgarishlar, salomatlik holati, o'rta yosh krizisi.

O'rta yosh tushunchasi. O'rta yoshdagi shaxslarning jismoniy, psixologik va intellektual o'ziga xosliklari. O'rta hayot inqirozining belgilari. O'rta yoshdagi inqiroz natijasida yuzaga keladigan asoratlar. O'rta hayot inqirozining diagnostikasi. O'rta yoshdagi inqirozni davolash.

13-mavzu: O'rta yoshdagi shaxslarning asosiy ijtimoiy muammolari

O'rta yoshdagi bosqichning asosiy xususiyatlari. Sendvich-generatsiya tushunchasi, kambag'allik muammolari, o'rta yoshdagi shaxslarning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolar tahlili.

14-mavzu: Keksalik davri. Keksa yoshdagi shaxslardagi biologik va psixologik o'zgarishlar

Keksayishning ijtimoiy muammolari. Keksa insonlarning yolg'izlik muammolari. Keksa insonlarning statusini o'zgarishi. Biogerontologiya tushunchasi. Keksalikda salomatlik muammosi. Keksalarning jamiyatdagi egallagan o'rni. Keksalarga jamiyatda yaratilgan sharoitlar va ularga bo'lgan munosabatlar. Keksalilar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyati.

15-mavzu: Keksa yoshdagi shaxslarga nisbatan zo'ravonlik va ularni ijtimoiy himoya qilish amaliyoti

Turli jamiyatlarda keksa insonlarga nisbatan zo'ravonlik muammosi. Zo'ravonlik turlari. Keksa insonlarga nisbatan abyuz va neglekt. Keksa insonlarga nisbatan zo'ravonlik sabablari. Turlari, darajasi va asosiy omillar. Muammoning miqyosi: uy muhiti, institutsional vaziyat. Katta yoshdagi odamlarni xo'rlash oqibatlari. Keksalilar va qariyalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishning normativ-huquqiy asoslari.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yich ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit faniga kirish.

2. Inson xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan asosiy biologik va psixologik nazariyalar..

3. Inson xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy nazariyalar tahlili.

	<p>4. Ijtimoiylashuv tushunchasi, turlari va mexanizmlari.</p> <p>5. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari.</p> <p>6. Oila va mahalla ijtimoiylashuvining an'anaviy shakllari sifatida.</p> <p>7. Xavf ostidagi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar tahlili.</p> <p>8. Maktab yoshdagi bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari.</p> <p>9. O'smirlilik davri. O'smir yoshdagi bolalarning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy jihatlari.</p> <p>10. O'smir yoshdagi bolalarning xulq-atvoriva emotsional muammolari.</p> <p>11. Zararli moddalarni iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy ish.</p> <p>12. O'rta yoshdagi shaxslarning xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlari: jismoniy o'zgarishlar, salomatlik holati, o'rta yosh krizis.</p> <p>13. O'rta yoshdagi shaxslarning asosiy ijtimoiy muammolari: Sendvich-generatsiya, kambag'allik, turmush tarzi.</p> <p>14. Keksalik davri. Keksa yoshdagi shaxslarda biologik va psixologik o'zgarishlar.</p> <p>15. Keksa yoshdagi shaxslarga nisbatan zo'ravonlik va ularni ijtimoiy himoya qilish amaliyoti</p> <p>V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni. 2. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy faoliyat. 3. Giyohvandlik- bolalar deviant xulqining shakllaridan biri sifatida. 4. Keksa yoshdagi shaxslardagi biologik va psixologik o'zgarishlar. 5. Spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan o'smirlar bilan ijtimoiy faoliyat yuritish. 6. Oilada ijtimoiy muammolarning kelib chiqish sabablari. 7. Ijtimoiy xodim va ijtimoiy pedagogning ta'lim muassasasida bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasiga qaratilgan faoliyat. 8. Ijtimoiy xodimning oila bilan ish yuritishi 9. Xavf ostidagi oilalarning o'ziga xos xususiyatlari. 10. Ota-ona qaramog'ida bo'lmagan bolalar. 11. Murakkab oilalar, ularda uchraydigan muammolar va ularni hal qilish yo'llari. 12. Ijtimoiy ishda „me'yor“ va „me'yordan og'ish“ tushunchalari. 13. Oilalar va o'smirlarning antialkagol rehabilitatsiyasi metod va shakllari. 14. Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ijtimoiy faoliyat yuritish. 15. Mahalla-ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Inson xulq-atvori va undagi ijtimoiylashuv muammosini hal etish usullari

	<p>va metodlarini aniqlashda bilimlar tizimini chuqurlashtirish, inson xulq-atvori va ijtimoiy ish amaliyotini tashkil qilish uslubi va yo'nalishini tanlashda bo'lajak soha egalarida professional tasavvurlarga ega bo'lishi; (<i>bilim</i>)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Amaliy sotsiologik tadqiqotlar olib borib, inson xulq-atvori muammolarini, asosiy omillarini tasniflay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; (<i>ko'nikma</i>) • Tarixiy-qiyosiy metod asosida talabalarga chet eldagi va Vatanimizdagi xususiy , jamoatchilik va davlat tomonidan ijtimoiy yordam amaliyotining o'ziga xos tomonlarini o'ziga xos jihatlarini bilish va tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak. (<i>malaka</i>)
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blits-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>

Asosiy adabiyotlar

1. X.O.Ziyayeva . Inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Zebo print", 2024. – 248-b.
2. М.А.Абдувалиева. Поведение человека И социальная среда. Учебное пособие. – Т.: "Замин Нашр", 2023. - 253 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Matn) Rasmiy nashr.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ –637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
5. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murajaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlar forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar (matn): publistika. Toshkent: TASVIR nashriyoti, 2021. – 52 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma (matn): - T.: "Ma'naviyat", 2021. - 280 b.
7. Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir (matn). - Toshkent. TASVIR nashriyoti uyi, 2021. - 36 b.
8. Sh.M.Mirziyoyev Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. - 408 b.
9. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: 2017. - 488 b.
10. Ганиева М.Х. Основы социальной работы. Учебное пособие.- Ташкент:., ЧАШМА ПРИНТ, 2009.-112 с.
11. Абрамян, Н.Г. Краткий курс общий и возрастной психологии: учеб.пос. / Н.Г.Абрамян, Владим. Гос. Ун-т им. А.Г И Н.ГСтолетових.- Владимир :Изд-во ВлГУ, 2020. - 132 с.
12. Дзялошинский, И.М. Личностный мир человека: социальные и психологические проблемы текстовой деятельности: учеб.пос / И.М.Дзялошинский. – Москва: Ай Пи Ар Медиа, 2021. - 884 с.
13. Социальные проблемы: уч.пос. для академического бакалавриата / Н.С.Сироед, Н.В.Осмачко, Ю.И.Гайнулина под.ред. Н.С.Сироед.- Владивосток: Изд-во Далневост. Федерал. Ун-та, 2020. - 406 с.

Axborotmanbalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.Uz
4. www.edu.uz

7.	O'quv dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2024-yil _____- _____dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: M.K.Ismailov –Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d. PhD
9.	Taqrizchi: A.Kenjaboyev - Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası dotsenti, p.f.n.